

# Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligi reytingida "O'zkimyosanoat" AJ yaxshi natija bilan 4-o'rinni egalladi

// 14.03.2023

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-samaradorligi-reytingi>



Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligi reyting baholashdan o'tkazildi (<https://anticorruption.uz/uz/item/2023/03/14/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-chora-tadbirlarning-samaradorligi-reyting-baholashdan-otkazildi>).

Baholash natijalariga ko'ra, 62 ta davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholandi. Reyting baholash natijalariga ko'ra **"O'zkimyosanoat" AJ** 62 ta davlat tashkilotlari ichida **89 ball bilan 4-o'rinni egalladi**.

"O'zkimyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish va ushbu illatning oldini olish yuzasidan tizimli ishlarni davom ettiradi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**